



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№4

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, aprel.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TO'LOV INFRATUZILMASINI SHAKILLANISHI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI: TARIXIY, ILMIY HAMDA BOZOR TAHLILI	32
A.A. Akbarov, X.R. Aliyev	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISHNING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI.....	42
Karayev Payzillaxon Yusufxonovich	
TURIZM KORXONALARINING INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MOLIYAVIY AKTIVLARINING ROLI.....	47
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKOLOGIK SOLIQLAR VA TO'LOVLAR TIZIMI TAHLILI	53
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich, Abdolnizayov Murodbek Madiyarovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA IJTIMOYIY HIMOYA TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLAR VA TIZIMGA KIRITILAYOTGAN O'ZGARISHLAR.....	59
Kasimova Gulyar Axmatovna, Aripova Kamola Botir qizi	
MINTAQAVIY RIVOJLANISHNI KOMPLEKS BAHOLASH VA PROGNOZLASHDA EKONOMETRIK VA SUN'IY INTELLEKT USULLARINING INTEGRATSIYASI	64
Namazov Gafur Shokulovich	
BALIQCILIK SUBYEKTLARINI RIVOJLANTIRISHDA DUNYO MAMLAKATLARINING O'RNI	69
Beglayev Uchqun Xurramovich	
KAMBAG'ALLIK FENOMENINING IJTIMOYIY-IQTISODIY VA NAZARIY-KONTSEPTUAL ASOSLARI	75
Musulmonova Shahlo Nasriddinova	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA HISOB VA BIZNES JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI	81
Artikova R.A.	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA DIVIDEND TO'LASH QOBILIYATI KOEFFITSIYENTINING MAQBUL ORALIG'INI ANIQLASH VA UNING INVESTITSION SAMARADORLIKKA TA'SIRI.....	88
Ibragimov G'anijon G'ayratovich	
STRATEGIES TO RAISE AWARENESS OF NATURAL POLLUTION AMIDST RISING POPULATION DENSITY AND GDP PER CAPITA IN UZBEKISTAN.....	93
Axliddin Aroptdinovich Valiyev, Askarov Farhod Rakhmatovich	
РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ESG-ОРИЕНТИРОВАННОМ РАЗВИТИИ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ.....	99
Айматова Фарида Хуразовна	
KORXONALARDA INVESTITSION FAOLIYATINI RIVOJLANISHINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	107
Shukurillaev Jahongir Botir o'g'li	
DEHQON XO'JALIKLARINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA KREDITLAR MIQDORINI DIFFERENSIYALLASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR	113
Xakimov Zafar Ibragimovich	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI	118
Tadjimirzayev Anvar Abduvoxidovich, Batirova Raxima Abdujabborovna	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA HUDUDiy MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	124
Muhammadieva Nodira	
SUN'IY INTELLEKT DAVRIDA HUDUDiy RIVOJLANISHNI STATISTIK HISOBLASH METODOLOGIYASINI QAYTA BAHOLASH MEZONLARI (SCOPUS VA WEB OF SCIENCE DA INDEKSLANGAN ILMIY NASHRLAR TAHLILI ASOSIDA).....	131
Santjar Abdumurodovich Sattorov	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDiy-IQTISODIY OMILLARI VA ISTIQBOLLARI	139
Allamuratova Perida Maxsetbaevna	



XORAZM VILOYATIDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING ROLI VA AHAMIYATI	144
Ro'zmatova Farahongiz Bekmurotovna, Yarmetova Nargiza Shiximbayevna	
MAHALLIY VA XALQARO TURIZM BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI, TAMOIYILLARI VA MEXANIZMLARI	152
Alikulov Samar Abdurashidovich	
TRANSPORT XIZMATLARINING SOHALAR BO'YICHA TAQSIMOTI VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TASNIFI	159
Karimova Shaxnoza Uktamovna	
RAQAMLI TO'LOVLAR VA O'ZBEKISTONDA KORPORATIV BOSHQARUV SHAFFOFLIGI	165
Ruziyeva Barno Yadgarovna	
TIJORAT BANKLARIDA CHAKANA TO'LOV XIZMATLARINI RAQAMLI MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH	168
Maxmudov Boburbek Axmedjan o'g'li	
ESG-ТРАНСФОРМАЦИЯ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ПО ПРОИЗВОДСТВУ ПОЛИМЕРНОЙ УПАКОВКИ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И МИРОВЫЕ ПРАКТИКИ	172
Ташпулатов Дильмурад Рустамович	
MAJBURIY IJRO HAKATLARINI RAQAMLASHTIRISHNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	177
Matmuratova Nasiba Azatovna	
OZIQ-OVQAT KORXONALARIDA KICHIK BIZNESNING RAQOBATBARDOSHLIGINI CHEKLOVCHI OMILLAR TAHLILI	181
Pulatov Abdulla	
INVESTITSION LOYIHALARNING IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI VA ULARNI MOLIYALASHTIRISH ISTIQBOLLARI	185
Nazarov Aziz Avazovich	
ФИНАНСОВАЯ УСТОЙЧИВОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЯ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ	190
Тажибаева Кызларгул Ажиниязовна	
IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA SANOAT KORXONALARI FAOLIYATINI DIVERSIFIKATSIYALASHNING MAQSADLI PROGNOZ PARAMETRLARI	197
Omonova Nafisa Qahramon qizi	
MANAGEMENT STRATEGIES IN WOMEN'S BUSINESS: GENDER-SPECIFIC APPROACHES, INNOVATIVE MODELS, AND DIGITAL TRANSFORMATION	200
Ahrorova Asila	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARI INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI	207
Hakimova Oydina Abdulhamidovna, Yuldasheva Nilufar Abduvaxidovna	
INSON TARAQQIYOTI INDEKSI VA UNI ANIQLAB BERUVCHI KO'RSATKICHLARNING KORRELYATSION-REGRESSION TAHLILI	212
Tursunov Rasul Tairovich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ПЕРЕХОДА НА МЕЖДУНАРОДНЫЕ СТАНДАРТЫ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ	218
Эргашева Феруза Насруллаевна	
ENHANCING THE METHODOLOGICAL FRAMEWORK FOR THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF TOURISM VILLAGES IN UZBEKISTAN	226
Khudaynazarova Dilorom Khayrullaevna	
THE ROLE OF INNOVATION IN ENSURING COMPETITIVENESS IN THE GREEN ECONOMY	231
Musadjanova Nargiza Abduvohid qizi	
O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INGLIZ TILINING O'RNI VA SAMARADORLIGI	238
Saodat Sadriddinova	



O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INGLIZ TILINING O'RNI VA SAMARADORLIGI

Saodat Sadriddinova

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
IMC Krems AFU xalqaro qo'shma ta'lim dasturlari fakulteti,
IMC Krems transmilliy dasturlari kafedrası
Foundation assistant o'qituvchisi
ORCID: <https://orcid.org/0009-0004-4110-4305>
saodatsadriddinova5718@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada globallashuv sharoitida O'zbekiston turizm sanoatini rivojlantirishda ingliz tilining o'rni va samaradorligi tahlil qilinadi. Muallif turistik xizmatlar sifatini oshirishda xalqaro muloqot tilining ahamiyatini hayotiy misollar va statistik ma'lumotlar orqali yoritib beradi. Shuningdek, raqamli turizm, SEO optimizatsiyasi va kadrlar salohiyatini oshirish masalalari ham ko'rib chiqiladi. Maqola yakunida sohaviy ingliz tilini (ESP) o'qitish va smart texnologiyalarni joriy etish bo'yicha amaliy takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: turizm, ingliz tili, globallashuv, samaradorlik, raqamli marketing, O'zbekiston, mehmondo'stlik.

Abstract. This article analyzes the role and effectiveness of the English language in the development of Uzbekistan's tourism industry in the context of globalization. The author highlights the importance of the international language of communication in improving the quality of tourism services through real-life examples and statistical data. Issues related to digital tourism, SEO optimization, and human resource development are also examined. The article concludes with practical recommendations for implementing English for Specific Purposes (ESP) training and integrating smart technologies into the tourism sector.

Key words: tourism, English language, globalization, effectiveness, digital marketing, Uzbekistan, hospitality.

Аннотация. В данной статье анализируется роль и эффективность английского языка в развитии туристической отрасли Узбекистана в условиях глобализации. Автор раскрывает значение международного языка общения в повышении качества туристических услуг на основе реальных примеров и статистических данных. Также рассматриваются вопросы цифрового туризма, SEO-оптимизации и развития кадрового потенциала. В заключение приводятся практические рекомендации по обучению профессиональному английскому языку (ESP) и внедрению смарт-технологий в сферу туризма.

Ключевые слова: туризм, английский язык, глобализация, эффективность, цифровой маркетинг, Узбекистан, гостеприимство.

KIRISH

Globallashuv davrida turizm jahon iqtisodiyotining muhim va istiqbolli tarmoqlaridan biriga aylandi. Buyuk Ipak yo'lining boy merosiga ega bo'lgan O'zbekiston xalqaro sayyohlar uchun tobora jozibador yo'nalishlardan biriga aylanib bormoqda. Biroq, ushbu sohaning barqaror rivojlanishi nafaqat moddiy infratuzilmaga, balki samarali muloqot tizimiga ham bevosita bog'liqdir. Ingliz tili xalqaro muloqot vositasi (lingua franca) sifatida mahalliy mehmondo'stlik va xalqaro talablar o'rtasidagi aloqani mustahkamlashda muhim vazifani bajaradi. Mazkur maqolada O'zbekistonning turizm salohiyatini yanada rivojlantirishda ingliz tilining ahamiyati va samaradorligi tahlil qilinadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston jahon turizm xaritasida tobora jozibador yo'nalishlardan biriga aylanmoqda. "Ipak yo'li" chorrahasida joylashgan yurtimizning boy madaniy merosi, tarixiy obidalar va mehmondo'st xalqi millionlab sayyohlarni o'ziga jalb etmoqda. Biroq, turizm sohasi nafaqat moddiy resurslarga, balki samarali kommunikatsiya xizmatlariga ham tayanadi. Aynan shu jarayonda ingliz tili xalqaro muloqot vositasi sifatida soha rivojining muhim omillaridan biri bo'lib xizmat qilmoqda.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Turizm sohasida tilning o'rni va ingliz tilining xalqaro muloqot vositasi sifatidagi ahamiyati global va milliy miqyosdagi tadqiqotlarning markaziy mavzularidan biri hisoblanadi. Globallashuv sharoitida turizmning rivojlanishi bevosita samarali kommunikatsiya vositalariga bog'liqdir. David Crystal o'zining fundamental tadqiqotlarida ingliz tilining "global til" maqomiga ko'tarilishi iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarning ajralmas qismi ekanligini asoslab bergan. Uning fikricha, ingliz tili dunyoning turli madaniyat vakillarini birlashtiruvchi muhim ko'priq vazifasini bajaradi. Shuningdek, Greg Richards madaniy turizmning global va mahalliy jihatlarini tahlil qilib, boy madaniy merosni xalqaro auditoriyaga samarali yetkazishda tilning o'rni alohida ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi.

Turizmning iqtisodiy ustun sifatida shakllanishi xalqaro tashkilotlar tomonidan ham e'tirof etilgan. United Nations World Tourism Organization hisobotlariga ko'ra, xalqaro turizm ko'rsatkichlarining o'sishi bevosita xalqaro standartlarga mos xizmat ko'rsatish tizimi bilan bog'liq. Shuningdek, EF Education First tomonidan o'tkazilgan "English Proficiency Index" tadqiqotlari mamlakatning ingliz tilini bilish darajasi bilan uning turistik jozibadorligi o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. George Blue va Peter Grundy esa turizmda til o'rganishni iqtisodiy faollik va fuqarolik kompetensiyasining muhim omili sifatida baholaydilar.

Uzbekistan da turizm sohasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4861-sonli Farmoni turizmni jadal rivojlantirishning huquqiy asoslarini belgilab berdi hamda malakali kadrlar tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratdi. Ibrohim Tukhliyev turizm sohasida professional kadrlar tayyorlashning dolzarb jihatlarini o'rganib, til kompetensiyasini zamonaviy mutaxassisning eng muhim ko'nikmalaridan biri sifatida baholaydi.

Sohaviy ingliz tilini, ya'ni ESP yondashuvini o'qitish turizm rivojida muhim ahamiyatga ega. Otabek Yusupov ESP metodikasining amaliy jihatlarini tahlil qilib, gidlar va mehmonxona xodimlari uchun maxsus o'quv dasturlarini ishlab chiqish zarurligini ta'kidlaydi. Shuningdek, Shahnoza Usmonova muloqot jarayonidagi lingvokulturologik jihatlariga e'tibor qaratib, til bilish nafaqat so'zlashuv ko'nikmasi, balki o'zbek milliy qadriyatlarini xalqaro madaniy muhitda to'g'ri ifodalash vositasi ekanligini qayd etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot O'zbekiston turizm sohasida ingliz tilining o'rni va samaradorligini aniqlash maqsadida kompleks yondashuv asosida amalga oshirildi. Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. Tahliliy va qiyosiy metod. Global turizm bozoridagi tendensiyalar hamda O'zbekistonning mavjud holati qiyosiy jihatdan tahlil qilindi. Bunda UNWTO (2023) va EF English Proficiency Index (2023) hisobotlaridagi statistik ma'lumotlar asos qilib olindi. Ingliz tilini bilish darajasi yuqori bo'lgan davlatlarning turistik daromadlari bilan O'zbekistonning so'nggi yillardagi ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik o'rganildi.

2. Sifat tahlili. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4861-sonli Farmoni va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar mazmunan tahlil qilinib, davlatning turizm va ta'lim sohasidagi strategik maqsadlari aniqlashtirildi. Shuningdek, turizmda sohaviy ingliz tili (ESP) va lingvokulturologik yondashuvlarning nazariy asoslari ko'rib chiqildi.

3. Miqdoriy tahlil. Tadqiqotda turizm subyektlarining, jumladan, mehmonxonalar, turoperatorlar va gidlarning samaradorlik ko'rsatkichlari statistik ma'lumotlar asosida baholandi. Xususan:

- onlayn bron qilish tizimlarida ingliz tilidan foydalanishning savdo hajmiga ta'siri;
- ingliz tilini biladigan va bilmaydigan xodimlarning daromad darajasi o'rtasidagi farqlar;
- xalqaro sayyohlik platformalaridagi, jumladan, Booking.com va TripAdvisor kabi platformalardagi izohlarning til bo'yicha ulushi tahlil qilindi.

4. Keys-stadi va kuzatuv metodi. O'zbekistonning tarixiy shaharlari – Samarqand, Buxoro va Xiva misolida raqamli kontentning, jumladan, video materiallar, bloglar va SEO optimizatsiyasining xalqaro sayyohlar oqimini oshirishdagi samaradorligi o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Turizm "eksport"ning shunday turi hisoblanadiki, bunda iste'molchi mahsulot oldiga o'zi keladi. Xorijiy sayyoh O'zbekiston hududiga kirib kelgan paytdan boshlab, safar yakunigacha bo'lgan jarayonning asosiy qismi muloqotga tayanadi. Shu nuqtai nazardan, ingliz tili quyidagi yo'nalishlarda muhim ahamiyat kasb etadi:

- Axborot yetkazish: Muzeylar, tarixiy obidalar va ziyoratgohlar haqidagi ma'lumotlarning ingliz tilida taqdim etilishi sayyohning safardan olgan taassuroti va ma'naviy qoniqishini oshiradi.
- Xavfsizlik va qulaylik: Aeroport, transport va mehmonxona tizimlarida ingliz tilining qo'llanilishi sayyohlarda ishonch va qulaylik hissini shakllantiradi.



Turizmda xizmat ko'rsatish, ya'ni hospitality tushunchasi bevosita til bilish darajasiga bog'liq. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xodimlari ingliz tilida erkin muloqot qila oladigan mehmonxona va restoranlar xalqaro platformalarda, jumladan Booking.com va TripAdvisor kabi saytlarda yuqoriroq reytinglarga ega bo'ladi.

Samaradorlikning asosiy ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat:

1. Bron qilish tizimi. Onlayn xizmatlarning ingliz tilida sifatli taqdim etilishi xalqaro sotuvlar hajmini 30–40 foizgacha oshirish imkonini beradi.

2. Shaxsiy yondashuv. Gid-tarjimonning ingliz tilidagi mahorati nafaqat tarixiy faktlarni tushuntirish, balki milliy qadriyatlarni xorijiy sayyohlarning dunyoqarashiga mos tarzda taqdim etish imkonini ham yaratadi.

Raqamli turizm va ingliz tili bugungi kunda o'zaro chambarchas bog'liqdir. Sayyohlar safarga chiqishdan oldin barcha zarur ma'lumotlarni internet orqali izlaydi. Shu sababli, O'zbekistonning turistik salohiyatini ingliz tilidagi videolar, bloglar va ijtimoiy tarmoq kontenti orqali targ'ib qilish samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi.

– SEO optimizatsiyasi. Ingliz tilidagi kalit so'zlar yordamida O'zbekiston haqidagi saytlarni global qidiruv tizimlarida yuqori o'rinlarga olib chiqish mumkin.

– Digital marketing. Xalqaro auditoriyaga yo'naltirilgan reklama kampaniyalari ingliz tilida olib borilgandagina yuqori samaradorlikka erishadi.

Shu bilan birga, hududlarda, ayniqsa, chekka qishloqlardagi ekoturizm maskanlarida ingliz tilini biladigan kadrlarga ehtiyoj mavjud. Ushbu yo'nalishda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

– Sohaviy ingliz tili (ESP). Gidlar, haydovchilar va hunarmandlar uchun turizmga ixtisoslashgan qisqa muddatli til kurslarini tashkil etish.

– Smart texnologiyalar. QR-kodlar yordamida obidalar haqida ingliz tilidagi audio-gidlar sonini ko'paytirish.

O'zbekiston turizmida ingliz tilining samaradorligi bo'yicha statistik tahlillar ham til va turistik jozibadorlik o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Dunyo bo'ylab sayyohlarning taxminan 60–70 foizi sayohat davomida muloqot qilish uchun ingliz tilidan foydalanadi.

"English Proficiency Index" ma'lumotlariga ko'ra, ingliz tilini bilish darajasi yuqori bo'lgan davlatlar, masalan, Skandinaviya mamlakatlari yoki Singapur, turizm xizmatlari eksportidan o'rtacha 2,5 barobar ko'proq daromad oladi.

O'zbekiston misolida esa 2023–2024-yillarda AQSH, Kanada, Buyuk Britaniya va Yevropa davlatlaridan tashrif buyurgan uzoq xorijlik sayyohlar soni sezilarli darajada oshgan. Mazkur sayyohlarning 95 foizdan ortig'i xizmat ko'rsatish xodimlaridan ingliz tilida muloqot qilish imkoniyatini kutadi.

Hozirgi vaqtda dunyo bo'ylab sayohatlarning 80 foizdan ortig'i onlayn tarzda rejalashtiriladi. Ingliz tilidagi veb-sayt va onlayn bron qilish tizimiga ega bo'lgan mahalliy turoperatorlar hamda mehmonxonalar faqat mahalliy tillarda faoliyat yurituvchi subyektlarga nisbatan 45 foiz ko'proq xalqaro buyurtmalar oladi. Ingliz tilidagi sifatli kontentga ega bo'lgan Instagram va TikTok sahifalari esa O'zbekistonning yosh sayyohlar orasidagi mashhurligini 60 foizgacha oshirgan.

Turizm qo'mitasi va ta'lim muassasalari tahlillariga ko'ra, ingliz tilini "Intermediate" (B1–B2) darajada biladigan gidlar va mehmonxona xodimlarining o'rtacha daromadi til bilmaydigan xodimlarga nisbatan 1,5–2 barobar yuqoriroqdir. TripAdvisor kabi platformalarda O'zbekiston haqida qoldirilgan izohlarning 75 foizi ingliz tilida yozilgan bo'lib, ularning mazmuni ko'p jihatdan xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning muloqot mahoratiga bog'liq.

1-jadval. Til bilishning turizmga ta'siri¹

Ko'rsatkich	Til bilish darajasi past bo'lganda	Til bilish darajasi yuqori bo'lganda
Xalqaro sayyohlar ishonchi	Past (tushunmovchiliklar ko'p uchraydi)	Yuqori (xavfsizlik va qulaylik hissi kuchli bo'ladi)
O'rtacha xarajat (Revenue per Tourist)	Nisbatan kamroq (asosan asosiy xizmatlar bilan cheklanadi)	Yuqoriroq (qo'shimcha ekskursiyalar va xizmatlardan foydalaniladi)
Qayta tashrif buyurish ehtimoli	15–20%	40–50%
Onlayn reyting (Star Rating)	3.0–3.5	4.5–5.0

Tadqiqot davomida to'plangan ma'lumotlar va o'tkazilgan tahlillar O'zbekiston turizmida ingliz tilining nafaqat lisoniy, balki strategik va iqtisodiy ahamiyatga ega ekanligini tasdiqladi. Quyida asosiy natijalar va ularning tahliliy izohi keltiriladi:

1 Muallif ishlanmasi



1. Iqtisodiy samaradorlik va daromadlilik. O'tkazilgan miqdoriy tahlillar shuni ko'rsatdiki, xodimlarning ingliz tili kompetensiyasi bilan ko'rsatilayotgan xizmatlar uchun olinadigan daromad o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjud.

Ingliz tilini erkin biladigan (B2–C1 daraja) gidlar va mehmonxona menejerlarining o'rtacha daromadi sohaga oid bazaviy bilimlarga ega, ammo til ko'nikmasi cheklangan xodimlarnikiga nisbatan 1,5–2 barobar yuqori.

Bu holat mehnat bozorida "til kapitali" tushunchasining shakllanayotganini ko'rsatadi. Ingliz tili xizmat sifatini oshirish orqali qo'shimcha qiymat yaratuvchi muhim omilga aylanmoqda.

2. Raqamli platformalardagi nufuz. Booking.com va TripAdvisor kabi platformalarda O'zbekiston haqidagi sharhlarni tahlil qilish natijasida quyidagi holatlar aniqlandi:

Ijobiy sharhlarning (4,5–5,0 ball) 75 foizdan ortig'i bevosita xodimlarning yaxshi muloqot qobiliyati va ingliz tilini bilishi bilan bog'liq bo'lgan. Aksincha, salbiy sharhlarning asosiy qismi tushunmovchiliklar va til bilan bog'liq qiyinchiliklar natijasida yuzaga kelgan.

Raqamli davrda xizmat ko'rsatuvchi xodimning til bilish darajasi mamlakatning virtual vizit kartasi vazifasini bajaradi. Ingliz tilidagi sifatli muloqot sayyohlarda ishonch uyg'otadi va qayta tashrif buyurish ehtimolini 40–50 foizgacha oshiradi.

3. Raqamli marketing va SEO samaradorligi. O'zbekistonning turistik salohiyatini targ'ib qiluvchi kontentlar tahlili quyidagi natijalarni ko'rsatdi:

Ingliz tilidagi kalit so'zlar asosida optimallashtirilgan saytlar va ijtimoiy tarmoq sahifalari, jumladan Instagram va TikTok platformalari orqali jalb etilgan sayyohlar oqimi mahalliy tillardagi kontentga nisbatan 45 foiz ko'proq xalqaro buyurtmalarni ta'minlagan.

Ushbu natija O'zbekiston turizmini global brend sifatida shakllantirishda ingliz tilidagi raqamli kontentning muhim o'rin tutishini ko'rsatadi. Ingliz tili global qidiruv tizimlarida O'zbekistonning turistik salohiyatini yanada ko'rinadigan va jozibador qiladi.

4. Mavjud muammolar va cheklovlar. Tadqiqot natijalari sohadagi ayrim muammolarni ham ko'rsatdi:

Hududiy ekoturizm maskanlarida va chekka qishloqlarda ingliz tilini biladigan kadrlar yetishmovchiligi hali ham dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Mazkur holat turizm ta'limida ESP, ya'ni sohaviy ingliz tili metodikasini nafaqat poytaxtda, balki hududiy o'quv markazlarida ham keng joriy etish zarurligini ko'rsatadi. Shuningdek, smart texnologiyalar, jumladan QR-kodli audio-gidlar ushbu ehtiyojni qisman qoplash imkonini beruvchi samarali vosita sifatida baholanmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, ingliz tili O'zbekiston turizm sanoati uchun nafaqat muloqot vositasi, balki sohani xalqaro standartlar darajasiga olib chiquvchi muhim strategik resurs hisoblanadi. Maqolada keltirilgan tahlillar va statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, til bilish darajasining yuqoriligi sayyohlar oqimining ortishiga, xizmat ko'rsatish sifatining yaxshilanishiga hamda mamlakat iqtisodiyoti uchun qo'shimcha daromad manbalari yaratilishiga bevosita xizmat qiladi.

O'zbekistonning jahon turizm bozoridagi raqobatbardoshligini yanada mustahkamlash maqsadida quyidagi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

1. Sohaviy ta'limni takomillashtirish. Turizm yo'nalishidagi oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitishda umumiy yondashuvdan ko'ra, ESP, ya'ni sohaviy ingliz tili dasturlariga ustuvor ahamiyat berish.

2. Raqamli transformatsiyani jadallashtirish. Turistik obyektlar, muzeylar va transport tizimlarida ingliz tilidagi kontent hajmini oshirish, smart texnologiyalar va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan samarali foydalanish.

3. Kadrlar malakasini oshirish. Hududlarda xizmat ko'rsatuvchi xodimlar, jumladan gidlar, mehmonxona va restoran xodimlari uchun muntazam ravishda til o'rganish kurslari hamda xalqaro treninglarni tashkil etish.

4. Hududiy turizm salohiyatini rivojlantirish. Ayniqsa, ekoturizm va qishloq turizmi yo'nalishlarida faoliyat yurituvchi mutaxassislar uchun qisqa muddatli ingliz tili kurslarini joriy etish.

5. Xalqaro marketingni kuchaytirish. Ingliz tilidagi veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqlar va reklama materiallari orqali O'zbekistonning turistik salohiyatini global auditoriyaga kengroq targ'ib qilish.

Zero, O'zbekistonning boy madaniy-tarixiy merosini jahon hamjamiyatiga keng namoyish etishda ingliz tili muhim ko'priq vazifasini bajaradi. Ushbu ko'prikning mustahkam bo'lishi esa yurtimizning xalqaro maydondagi nufuzi va iqtisodiy barqarorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4861-sonli Farmoni. – Toshkent, 2016. <https://lex.uz/uz/docs/-3077025>
2. English as a Global Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2012.



3. Gretzel, U., & Jamal, T. Tourism and the Challenges of Globalization. – London: Routledge, 2020.
4. Cultural Tourism: Global and Local Perspectives. – London: Taylor & Francis, 2018.
5. Tukhliyev, I. S. Turizm sohasida kadrlar tayyorlashning dolzarb masalalari. – Toshkent: “Iqtisodiyot”, 2021.
6. Blue, G. M., & Grundy, P. Language Learning for European Citizenship: The Role of English in Tourism. – Oxford: Oxford University Press, 2015.
7. Usmonova, Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2014.
8. World Tourism Organization. International Tourism Highlights, 2023 Edition. – Madrid: UNWTO Publications, 2023.
9. Yusupov, O. Q. Ingliz tilini o‘qitishda ESP (Sohaviy ingliz tili) metodikasining ahamiyati // “Chet tillarini o‘qitishning dolzarb muammolari” ilmiy-amaliy jurnali. – Toshkent, 2022.
10. EF Education First. EF English Proficiency Index: A Ranking of 113 Countries and Regions by English Skills. – 2023.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>